Zarafshon

Fidoyilik – Vatanga xizmat demak!

2026-yil 31-oktabr, shanba,
95 (24.275)-son

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

www.zarnews.uz https:/www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https:/twitter.com/zarnews_uz info@zarnews.uz

O‘zbek xalq maqoli

Betashvish bosh qayda, mehnatsiz osh qayda?!

29-oktabr – Turkiya Respublikasi tashkil topgan kun munosabati bilan ushbu davlatning Samarqanddagi Bosh konsulligi tomonidan bayram tadbiri uyushtirildi.



SAMARQANDDA TURKIYA RESPUBLIKA KUNI NISHONLANDI

Tadbirda viloyat va shahar hokimliklari mas’ullari, jamoatchilik vakillari, ayni paytda yurtimizda bo‘lib turgan turkiyalik tadbirkorlar va ushbu davlat vatandoshlari ishtirok etdi.

Turkiyaning Samarqanddagi Bosh konsuli Mehmet Majit, Turkiya oliy ta’lim kengashi prezidenti Erol O‘zvar, viloyat hokimi o‘rinbosari Rustam Qobilov tadbir qatnashchilarini tabrikladi.

– Bugun Turkiya Respublikasi kunini 86 million nafar vatandoshlarimiz qatorida xorijiy davlatlarda yashovchi 6 milliondan ortiq turkiyaliklar ham keng nishonlamoqda, – dedi Mehmet Majit. – Bizga ham bugun 103 yillik bayramni ota yurtimizda nishonlash nasib etganidan baxtiyormiz. Turkiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi aloqalar mushtarak tarixga asoslangan va yorug‘ kelajakka olib boradigan teng manfaatli, qardoshlik munosabatlaridir. Davlatlarimiz, xalqlarimiz doim bir-biriga hurmat, birodarlik va hamkorlik ruhi bilan yondashgan. Biz ushbu do‘stlikka 2023-yil 6-fevralda mamlakatimizda sodir bo‘lgan zilziladan so‘ng Xatay viloyatidagi uy-joylarni qayta tiklashga O‘zbekiston tomonidan ko‘rsatilgan yordam misolida yana bir bor guvoh bo‘ldik.

O‘z muxbirimiz.

ISTE’DODLAR VA INSON KAPITALI BO‘YICHA GLOBAL MULOQOT

Samarqand shahrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi istiqbolli kadrlarni tayyorlash bo‘yicha “El-yurt umidi” jamg‘armasi tomonidan tashkil etilgan “O‘zgarayotgan dunyoda inson kapitalini shakllantirish” mavzusida “Global Talent Forum” xalqaro forumi o‘tkazildi.



Inson kapitalini rivojlantirish va mamlakatning strategik vazifalarini amalga oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga qodir mutaxassislarni tayyorlash borasidagi xalqaro tajriba va milliy yondashuvlarni birlashtirishga qaratilgan tadbirda AQSh, Turkiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Qozog‘iston, Malayziya, Singapur, Germaniya, Yaponiya, Ozarbayjon kabi 15 ga yaqin davlatdan 100 nafardan ortiq ekspertlar, xalqaro tashkilot vakillari, davlat tuzilmalari, ta’lim muassasalari va stipendiya dasturlari vakillari ishtirok etdi.

Forum ochilishida “El-yurt umidi” jamg‘armasi ijrochi direktori Gulnoza Ismoilova so‘zga chiqib, ilk bor dunyoning o‘ndan ortiq davlatlaridan kelgan inson kapitalini rivojlantirish va iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash bilan shug‘ullanuvchi jamg‘arma va tuzilmalar mas’ullari ishtirokida o‘tkazilayotgan tadbir ushbu yo‘nalishda o‘zaro fikr va tajriba almashish uchun qulay imkoniyat ekanligini ta’kidladi. O‘z navbatida O‘zbekistonda iste’dodli yoshlarni kashf etish, ularning iqtidorini yuzaga chiqarish va davlat rahbari darajasida qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida ma’lumot berdi.

Forumda Turkiya oliy ta’lim kengashi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti ko‘nikmalar markazi, Xalqaro ta’lim instituti (IIE)ning Janubiy-Sharqiy Osiyo bo‘yicha rahbarlari va boshqalar so‘zga chiqib, Samarqanddagi forum texnologik o‘zgarishlar mamlakatlarni kadrlar tayyorlashga bo‘lgan yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqishga undayotgan bir davrda o‘tkazilayotgani bilan muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidladilar.

Yangi ishlab chiqarish quvvatlariga muhandis va texnologlar, raqamli iqtisodiyotga ma’lumotlar bilan ishlash va kiberxavfsizlik bo‘yicha mutaxassislar, qishloq xo‘jaligiga esa suvni tejash va biotexnologiyalar sohasidagi zamonaviy yechimlar zarur. Sog‘liqni saqlash va davlat boshqaruvida ham mahalliy sharoitlarni inobatga olgan holda xalqaro tajribani joriy eta oladigan insonlar kerak.

Forumda inson kapitalini rivojlantirishda moliya institutlarining roliga bag‘ishlangan maxsus sessiya, kelgusi o‘n yillik uchun hamkorlik muhokamasi, ikki tomonlama uchrashuvlar o‘tkazildi.

Tadbir doirasida “El-yurt umidi” jamg‘armasi bitiruvchilarining “Samarkand Tea Time” an’anaviy uchrashuvi ham tashkil etildi.

Кечинма

“БИЗ КАТТА ЙЎЛГА ЧИҚДИК!”

Ёки Президентдан бир соатлик сабоқ



Давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёев “Марказий Осиё – АҚШ” (С5+1) форматидаги мулоқот иштирокчиларини қабул қилиш учун Самарқандга бир кун олдин ташриф буюрганининг мақсадини меҳрли эҳтирос билан ўзи айтиб қўя қолди.

- Бугун Самарқанд дунё машваратининг марказига айланди. Уни бутун дунё яхши кўради. Менинг ҳам Самарқандга меҳрим бўлакча. Чунки вилоятнинг биринчи раҳбари бўлиб ишлаш жараёнида бу заминнинг ҳақиқий сеҳрини сезганман, самарқандликларнинг уддабурон, маърифатли эканлигига ишонч ҳосил қилганман. Шу сабабли янги кўприк баҳонасида сизлар билан дийдорлашишни ният қилдим.

Табиийки, жамоатчилик вакиллари – депутатлар, фахрийлар, ишбилармонлар, олимлар, ёшлар ўз давлат раҳбарининг Самарқандга эътибори кучли эканлигини билганликлари учун қалбларида ўзгача қувонч туйдилар. Эҳтимол, Самарқанд шаҳрини Ширин шаҳарчаси билан боғловчи, Қорадарё устида қурилган 650 метрлик бу кўприк Президент ташаббуси билан барпо этилаётган бошқа улуғвор бинолар олдида оддий кўринар. Бироқ биз учун бу иншоот осмон устига қўйилган қасрга ўхшаб туюлди. Чунки бу кўприк бундан 25 йил аввал айнан Ш.Мирзиёев ўйлаган режанинг асоси эди. Ўшанда аэропорт орқасини, дарё соҳилларини ўрганиш чоғида у кишининг “Бу майдонлар Самарқанднинг дарвозаси ҳисобланади, қолаверса, шаҳарни кенгайтиришнинг катта имкони. Қани энди дарё устига кўприк қуриб йўл очсак, кўплаб муаммоларимиз ҳал бўлар эди”, деган сўзларини ҳамон эслаймиз.

Иккинчидан, бу кўприк сайёҳлик индустриясининг ҳам тимсоли. Бинобарин, иншоотни ўз пулимизга, ўз қурувчиларимиз, ўз муҳандисларимиз барпо этди. Ана шу фахр, ифтихор қалбимизни осмон қадар кўтариб турди.

Бу фикрларни билдирганимизда давлатимиз раҳбари ҳам тўлқинланиб кетди ва халқаро ҳамжамият билан ишонч кўприкларини, ҳамкорлик кўприкларини қанчалик кўп қурсак, у бизга шунча салоҳият келтиришини айтди.

Шу ўринда айрим давлат раҳбарлари, йирик корпорациялар бошлиқлари билан йиллар давомида биз учун керакли бўлган муаммолар устида олиб бораётган музокараларининг моҳияти ҳақида ўртоқлашди. Йиллар давомида Ўзбекистонга иккинчи, ҳатто, учинчи даражали кўз билан қараб келинган. Ана шундай нуқтаи назарни кескин ўзгартира олиш осон эмаслигини, ҳатто ўз ҳамкорининг фикрини ўзгартириш нечоғлик қийинлигини билган инсон учун бу ҳолатни тушуниш қийин эмас. Зотан, биз ана шу жараёнлар самарасини кўриб турибмиз.

(Давоми 2-саҳифада) »»

QOG‘OZDAGI HISOBOTLAR EMAS, AMALIY NATIJALAR MUHIM

Viloyat korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashining navbatdagi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Unda kengash a’zolari, viloyatdagi boshqarma va idoralar rahbarlari hamda mas’ul xodimlar ishtirok etdi.

Yig‘ilishda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika ishchi guruhining viloyatimizda o‘tkazgan o‘rganishlari natijalari, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiyaviy omillarning oldini olishga qaratilgan dolzarb chora-tadbirlar bo‘yicha ishlab chiqilgan «yo‘l xaritasi» ijrosi bilan bog‘liq masalalar muhokama qilindi.

Viloyat prokurori o‘rinbosari Uchqun Butunovning qayd etishicha, ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida joriy yilning 9 oyida viloyatda korrupsiya holatlari o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 28 taga kamaygan. Bozorlar faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etish hisobiga tushumlar avvalgi yillarga nisbatan 5,8 milliard so‘mga oshgan. Ayrim sohalar xodimlarining bodi-kameralar bilan ta’minlanishi xizmat faoliyatida shaffoflikni kuchaytirib, korrupsiyaviy holatlarning sezilarli kamayishiga xizmat qilgan.

Biroq ba’zi yo‘nalishlarda korrupsiyaviy xavf-xatarlar va tizimli muammolar saqlanib qolayotgani qayd etildi. Jumladan, bozorlarda raqamlashtirish ishlari respublikada birinchilardan bo‘lib joriy etilgan bo‘lsa-da, patta yig‘ish, avtomobil to‘xtash joylaridan foydalanish va to‘lovlarni undirish jarayonlarida hanuzgacha qonunga zid holatlarga duch kelinmoqda. Shuningdek, joylarda soliq va budjet tushumlarini ta’minlashdagi muammolar, avtomobil jarima maydonchalari faoliyatidagi kamchiliklar, tibbiyot muassasalarida raqamlashtirish ishlarining yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagani, maktablarni videokuzatuv kameralari bilan ta’minlash borasidagi sustkashliklar ko‘rsatib o‘tildi.

Muhokamalar davomida viloyat bozorlar uyushmasi, soliq organlari, viloyat IIB yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi, sog‘liqni saqlash, maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari mas’ullari aniqlangan kamchiliklarning bartaraf etilishi yuzasidan axborot berdi. Mavjud muammolarni yechish, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish, xizmat ko‘rsatish jarayonlarida shaffoflikni ta’minlash va har bir sohani korrupsiyadan xoli tizimga aylantirish bo‘yicha takliflar bildirildi, vazifalar belgilab olindi.

Akram BO‘RIYEV.

Toshkent shahridagi Olimpiya shaharchasida o‘tkazilayotgan **“Prezident Olimpiadasi”** respublika sport musobaqalarida viloyatimiz sportchilari shu paytgacha jami **24 ta — 10 ta oltin, 9 ta kumush va 5 ta bronza** medalini qo‘lga kiritib, umumjamoa hisobida uchinchi o‘rinda bormoqda.

Har bir kishi uchun xonadonda toza ichimlik suvi bo‘lishi oddiy ehtiyoj. Ammo yillar davomida suv ta’minoti bilan bog‘liq qiyinchiliklarga duch kelgan aholi uchun bu masalaning yechimi naqadar muhim ekanini tasavvur qilish qiyinmas.

Kattaqo‘rg‘on shahrida ichimlik suvi ta’minoti masalasi uzoq yillar davomida dolzarb bo‘lib keldi. Bu muammo aholining kundalik turmushi, oilaviy yumushlari va yashash sharoitiga bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Shu bois bugun suv ta’minoti tizimini yangilash va mavjud muammolarga amaliy yechim topish borasida olib borilayotgan ishlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Nazarimda, hudud taraqqiyotini faqat yangi binolar, yo‘llar yoki zamonaviy inshootlar bilan baholab bo‘lmaydi. Taraqqiyot, avvalo, insonlar hayotidagi ijobiy o‘zgarishlarda, ularning kundalik tashvishlari kamayishida, xonadonlariga qulaylik kirib kelishida namoyon bo‘ladi. Aholi yillar davomida yechimini kutib kelgan muammolarning bartaraf etilishi ham ana shu o‘zgarishlarning muhim ko‘rsatkichidir.

KATTAQO‘RG‘ONDA SUV TA’MINOTI YANGILANMOQDA

Keyingi yillarda Prezident qarori asosida Kattaqo‘rg‘on shahrida ichimlik va oqova suv tizimlarini modernizatsiya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli investitsiya loyihasi amalga oshirilmoqda. Loyiha doirasida «Murtak» va «Ko‘rpa» suv inshootlarida qurilish-ta’mirlash ishlari bajarildi, «Ingichka–Sepki» suv tarmog‘i yangilandi. Ayni paytda «Boynazar» oqova suvlarni tozalash inshootida rekonstruksiya ishlari olib borilyapti.

Yaqinda «Murtak» suv inshootidagi quduq sinovdan o‘tkazilib, undan dastlabki suv namunasi olindi. Bu suv ta’minoti tizimini yangilash jarayonidagi muhim amaliy bosqichlardan biridir.

Albatta, dastlabki suv namunasining olinishi barcha muammolar to‘liq hal etildi, degani emas. Eng muhimi, qurilish va sinov ishlari to‘liq yakunlanishi, suv sifati belgilangan sanitariya talablariga muvofiqligi tasdiqlanishi hamda aholiga barqaror va uzluksiz ichimlik suvi yetkazib berilishi zarur. Zero, aholi uchun inshootning ishga tushirilgani haqidagi xabardan ham ko‘ra, xonadonlarda suvning muntazam oqib turishi, uning sifati va ta’minotining ishonchliligi muhimroqdir.

Ishonamanki, Kattaqo‘rg‘onda suv ta’minoti tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar to‘liq yakunlanib, aholi kutgan natijalarni beradi. Eng katta yutuq odamlarning yillar davomidagi tashvishlari kamayishi, xonadonlarida qulaylik yaratilishi va ertangi kunga bo‘lgan ishonchining mustahkamlanishidir.

Toza ichimlik suvi — shunchaki kommunal xizmat emas. U inson qadri, salomatligi va munosib hayotining muhim asosidir. Kattaqo‘rg‘onda yillar davomida dolzarb bo‘lib kelgan ushbu masalaning yechim sari borayotgani aholi uchun katta umid va kutilgan o‘zgarishlardan darak beradi.

Feruza RAHIMOVA,
xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati.

www.zarnews.uz https:/www.facebook.com/zarnews.uz
@zarnews_uz https:/twitter.com/zarnews_uz info@zarnews.uz

Yo‘limiz to‘g‘ri ekanligini dunyo tan olyapti

Zarafshon

“БИЗ КАТТА ЙЎЛГА ЧИҚДИК!”

Ёки Президентдан бир соатлик сабоқ







(Давоми. Бошланиши 1-саҳифада).

ДУНЁ ЮРТИМИЗ БИЛАН ҲАМКОРЛИК ҚИЛИШГА ИНТИЛЯПТИ

Бу ҳақда гап кетаркан, Шароф Рашидов номидаги Самарқанд давлат университети ректори, профессор, Олий Мажлис Сенати аъзоси, таниқли олим Рустам Холмуродов кўнглидаги гапни яшира олмади.

– Ҳурматли Президентим! Икки тизимни, ҳатто, мустақиллик йилларида ҳам икки хил иш услубини кўрган киши сифатида бир ҳолат мени ҳайратга солади. Мамлакатда Сиз бошлаган ислоҳотлар кириб бормаган соҳа қолмади, ҳисоб. Инсоннинг туғилишидан тортиб, то охирги кунигача бўлган ҳаётидаги ҳар бир жараён эътиборингизда. Бунинг устига халқаро алоқаларда ҳам бошқалардан ўзгача дипломатия билан ишлаяпсиз. Биласизми, АҚШ давлат котиби Марко Рубио билан бирга келган ёрдамчилардан бири бугун менга қўнғироқ қилиб, Самарқанд Квант маркази олимлари билан ҳамкорлик қилиш нияти борлигини айтди. Улар ўзлари ташаббус кўрсатяпти. Бу ҳазилакам гап эмас, бу юртимиздаги илмий салоҳиятнинг дунёнинг энг қудратли давлати эътирофи. Очиғи, қанчалик фидойи бўлмайлик, ислоҳотлар шитобига улгура олмай қоляпмиз...

Рустам Ибрагимович ҳақ гапни айтди. Мамлакатимизда бошланган ислоҳотлар ўн йил ичида бутун дунёга бўй-басти билан намоён бўлди. Халқаро рейтингларда ҳар кун янги босқичга кўтариляпмиз. Қишлоқ билан шаҳар ўртасидаги тафовут кундан кунга йўқоляпти, яъни урбанизация сиёсати кўзга ташланмоқда.

Келинг, бунга Самарқанд вилояти мисолида назар ташлайлик.

ШАҲАР ВА ҚИШЛОҚ ТАФОВУТИ ЙЎҚОЛЯПТИ

Ўтган ўн йил ичида ҳар бир туманда замонавий шаҳарчалар пайдо бўлди, истироҳат боғлари барпо этилди. “Янги Ўзбекистон” массивларида IT марказлари ишлаб турибди. Самарқанд халқаро туризм маркази эндиликда дунё ҳамжамиятининг йирик анжуманлари, сиёсий мулоқотлар ўтказиладиган масканга айланди. Имом Бухорий мажмуаси қайтадан, буюк муҳаддиснинг ислом оламида тутган ўрнига монанд улуғвор тарзда барпо этилди.

Қишлоқларимизда тупроқ йўллар қолмади, ҳисоб. Бугун Самарқанд далаларида етиштирилаётган ноз-неъматларнинг деярли барчаси экспорт қилиняпти. Трикотаж маҳсулотлари ва паррандачиликда экспорт ҳажми йил сайин ошмоқда. Ҳар йили ўнлаб стартап лойиҳалар ишлаб чиқаришга жорий этилаётир. Бир сўз билан айтганда, халқ хўжалигининг барча соҳасида ўзгаришлар бор. Бу ўзгаришларни ўз мутахассисларимиз, ўз олимларимиз амалга оширмоқда.

Президент сабоғи ҳақида гап борар экан, бир воқеа эсимга тушди. Шу йилнинг ёз ойларида Олмаликда мисни бойитиш заводи ишга туширилди. Бу тадбирда ўзим ҳам иштирок этган эдим. Шу ерда бир ҳолатдан хабар топдим – Шавкат Мирзиёев бундай корхона яратиш таклифини киритганда деярли барча мутахассислар бу ишнинг самараси йўқлигини айтган. Аммо Президентимиз Чилида саккиз йил давомида қурилган ва ҳозирча дунёда ягона ҳисобланган ана шундай завод ҳамда унинг хомашёси масалаларини эринмасдан пухта ўрганган. Ва, қатъий қарорга келган. Табиийки, юксак технологиялар ривожланган давлатлардан услубий ёрдам сўралган. Натижада Олмаликдаги завод Чилидаги каби саккиз эмас, балки тўрт йилда қуриб битказилди. Қувончлиси шундаки, бу ишни Ўзбекистон олимлари, мутахассислари, муҳандислари бажаришди. Бу сабоқ соҳа мутахассислари ишончини янада мустаҳкамлади. Улар эндиликда заводнинг иккинчи блогини барпо этмоқда.

Ҳурматли Президентимизнинг бизга берган яна бир сабоғи борки, буни эсламасдан иложим йўқ. Самарқанд вилоятида биринчи раҳбар бўлган йилларида ҳар бир соҳага шу тизимда тажриба орттирган фидойи пенсионерларни жалб этиб, маслаҳат кенгашлари тузди. Маслаҳат кенгашлари жойларда ишларни ташкил этишга кўмаклашиш баробарида жамоатчилик назоратини амалга оширди. Минерал ўғитга пул топилмаган чоғда Каттақўрғон шаҳрида фаолиятини тугатган чорвачилик мажмуасида йиллар давомида тўпланиб қолган катта миқдорда-ги органик ўғитни далаларга ташиш ташкил этилди. Айниқса, Самарқанд шаҳрини ободонлаштиришда ҳатто ўзимиз ишонмаган ишни бажариб кўрсатди, яъни вилоят жамоатчилиги ёрдамида шаҳар кўчалари тартибга келтирилди, чиқиндидан тозаланди. Аста-секин бу иш шаҳар ташкилотлари томонидан тизимли йўлга қўйилди. Бугун кўҳна кентдаги нафосат, гўзаллик, обод ва тоза кўчалар айнан ўша даврда бошланган ҳаракатлар самарасидир.

МАЪНАВИЙ ЖАСОРАТ

Президент Ш.Мирзиёевнинг халқаро майдондаги сабоқлари ҳам эътиборли. Айниқса, ҳар бир давлат ўз манфаати учун жиддий сиёсат олиб бораётган бир пайтда, муносабатларда ҳалоллик ва ҳамкорликни таъминлай билиш осон иш эмас. Бунинг учун икки томонлама ишонч даркор. Ана шундай нозик бир пайтда давлатимиз раҳбари ўзбекларга хос бағрикенглигини намойиш қилди. Аввалига иккиланган давлат раҳбарлари ҳам ҳаракатларимиздаги самимиятни кўриб, бизга мойиллик билдирди. Марказий Осиё давлатлари ўртасида қисқа фурсатда йўлга қўйилган ҳамкорлик бунинг яққол мисолидир.

Халқаро сабоқ деганимнинг сабаби бор. Давлатимиз раҳбари бошқа давлатлар билан ҳамкорликни бир марталик эмас, балки доимий ва стратегик шериклик даражасида бўлишига эриша олди. Аввало, бу муносабатларнинг илмий-амалий концепцияси ишлаб чиқилди. Бунда эҳтиёжларимиз, имкониятларимиз пухта ўрганилди. Натижада кўплаб давлатлар билан стратегик, олий даражадаги ҳамкорлик муносабатлари ўрнатилди. АҚШ давлат котиби Марко Рубионинг Ўзбекистонга, аниқроғи, Самарқандга 200 нафардан зиёд ишбилармон билан бирга келиши – бу тарихий воқеа. Унинг ўзи таъкидлаганидек, АҚШ давлатининг бундай катта делегацияси шу пайтгача бирорта давлатга амалий ташриф билан бормаган. Бунинг устига уларнинг кейинги йиллардаги бу тарздаги ташрифлари фавқулоддда ҳолат рўй берган давлатларгагина бўлган. Ўзбекистонга эса улар айнан ўз тижоратларини ривожлантириш, шунинг баробарида, Ўзбекистон билан ҳамкорликни йўлга қўйиш, барча соҳада демократик ислоҳотларни амалга ошираётган мамлакатни қўллаб-қувватлаш учун келдилар.

Сабоқлар... сабоқлар... сабоқлар... Улар бизнинг нуқтаи назаримизни ўзгартирди. Улар бизнинг ҳаётга қарашимизни бошқача қилди. Улар бизнинг масъулиятимизни кучайтирди. Улар бизни тараққиёт учун ҳамиша кураш олиб боришимизни эслатиб турди. Сабоқ бу маъруза ўқиш эмас, сабоқ бу кимгадир ниманидир зўр бериб тушунтириш эмас, сабоқ бу одамларни реал ҳаётга, янгиликка ишонтириш. Сабоқ – бу маънавий жасорат билан боғлиқ. Юртини, халқини севмаган одам бундай хислатга эга бўлмайди. Бир ўйлаб кўринг, конвертацияни очиб юбориш учун ўша даврда йиллар давомида ана шу яширин иқтисодиётдан мўмай даромад олиб турган қанчалаб нопок раҳбарларга ёмон кўриниш керак эди. Ёки, ўша тизимни қанчалик шиддат билан ислоҳ қилиш керак эди. Тошкент шаҳри “прописка”сини очишда ҳам ана шундай жасорат зарур эди. Ишбилармонларни текширишга, дарахтларни кесишга мороторий эълон қилиниши-чи? Президент Шавкат Мирзиёев ана шу жараёнда ўзида жасорат топа олди. Чунки у мамлакатдаги ҳур фикрловчи инсонларга, халқига ишонди. Натижада биз ўз тақдиримизни ўзимиз ўзгартира бошладик ва бугун мамлакат миқёсидаги лойиҳаларда бутун Ўзбекистон иштирок этяпти, десам муболаға бўлмайди.

“ЯРМИНИ БИЗ КЎТАРАМИЗ”

Шавкат Мирзиёевнинг яна бир ибратли сабоғи эсимдан чиқмайди. 2002 йилнинг баҳори. Пахтачида мен ўқиган мактабда ўқув биносининг катта қисми кучли ёмғир туфайли ўпирилиб тушди. У киши вилоятнинг биринчи раҳбари сифатида эртасигаёқ ўша ерга борди. Иморат эски, таъмири учун ҳам анчагина маблағ керак. Дарсларни тўхтатиб бўлмайди. Нима қилиш керак? Шунда у киши ушбу мактабда ўқиган ишбилармонлар ҳамда хўжалик раҳбари Фотима Тўхтапўлатовани маслаҳатга таклиф этди. Ҳамма ўз фикрини айтди. Ҳудуд бўйича ҳоким ўринбосари маблағ камлигини билдирди. Шунда Шавкат Мирзиёев масаланинг долзарблигини айтиб, қўлидан келганича ёрдам беришини тушунтирди. Хўжалик раиси ва тадбиркорлар харажатнинг ярмини кўтарадиган бўлди ва натижада мактаб биноси қисқа фурсатда таъмирдан чиқарилди. Ўшандан кейин жуда кўп жойларда муаммони ҳал қилишда жамоатчилик, фаоллар, тадбиркорлар вилоят ҳокими билан учрашувда “ярмини биз кўтарамиз” ташаббуси билан чиқа бошлади. Бюджет маблағлари тақчил бир вақтда бу ташаббус катта самара берди. Бугун эса мактаблар, болалар боғчалари қурилиши ва таъмирига етарлича маблағ ажратиляпти. Бу сабоқ ҳам ана шундай хайрли ишларнинг бошланишига асос бўлган эди.

САЙЁҲЛИК — АСОСИЙ ТАРМОҚЛАРДАН БИРИ

Самарқанд давлат тиббиёт университети профессори, университет биринчи клиникаси бош врачи Наргиза Абдуллаева халқаро сайёҳликдаги ислоҳотлар самараси шифохоналаргача етиб келганини айтди. Жумладан, ўтган йили шу шифохонада даволанганларнинг 12 фоизини, жорий йилнинг ҳозиргача бўлган даврида 30 фоизини хорижликлар ташкил қилган. Эндиликда Самарқандда энг мураккаб жарроҳлик операциялари амалга оширилмоқда. Бунинг учун Америка, Ҳиндистон ва Германияга боришга ҳожат қолмаяпти.

Бу мулоҳазадан кейин Президент вилоятга ҳоким бўлиб келганидаги бир воқеани эслади. Чарчоқ туфайли у киши юрагида безовталик сезган ва 1-клиникага борган. Ҳоким шифокор Анита Цой эски ЭКГ ускунасидан фойдаланганини кўриб ҳайрон қолади. Самарқанддек жойда тиббиётнинг аҳволи оғирлигидан афсус чекади. Кейинчалик бош врач Нурмамат Абдуллаев билан биргаликда шифохонани замонавий ускуналар билан жиҳозлашга киришади. Ўша ҳаракатларнинг самараси бугун ҳаммага аён: Самарқандда эндиликда буйрак ва жигар кўчириш операциялари амалга оширилмоқда.

– Яқинда хориждаги анжуманда бир давлатнинг раҳбари мендан “Ҳаракатларингиз ёмон эмас, бир йилда уч миллион нафарга яқин сайёҳ келаётгандир?”, - деб сўради. Мен унга бу рақам беш миллион нафардан ошганини айтдим, - деди давлатимиз раҳбари. – Бу бор гап. Эсимда, 2016 йилда мамлакатимизга бор-йўғи 650 минг нафар сайёҳ келган. Шароитини қилган эдик, беш миллион нафарга етди. Имом Бухорий мажмуаси ишга тушгач, биргина Индонезиянинг ўзидан қарийб беш миллион нафар зиёратчи кутяпмиз. Бунинг учун ҳамма имкониятлар бор. Халқаро сайёҳлик ва сайёҳлик индустрияси катта даромад келтиряпти. Шунинг учун биз уни ҳам кадрлашимиз, ҳам ривожлантиришимиз керак.

Президентимизнинг меҳр билан айтаётган мулоҳазаларини тинглар эканман, кўз олдимда мен учун қадрли йиллар гавдалана бошлади. Эски тизимда Самарқандга хориждан нуқул кекса сайёҳлар келарди. Улар ҳам Регистондан бошқа обидаларга деярли боришмасди. 2016 йилда ҳам Ўзбекистонга келадиган сайёҳлар сони 600 минг атрофида эди. Энди эса хорижлик сайёҳлар бу заминга оиласи билан ташриф буюрмоқда. Самарқандга халқаро анжуманга келган давлат раҳбарларидан бирининг ўз интервьюсида “Ўзбекистонга худонинг назари тушганлиги рост. Сизларга шундай фидойи, ақлли, дипломат инсонни раҳбар қилиб қўйган. Бу одам қисқа вақт ичида бутун дунё давлатлари раҳбарларининг ҳамкорликка нисбатан нуқтаи назарини ҳам ўзгартириб юборди. Мендаги ҳисоб-китобларга кўра, дунёдаги давлатлар раҳбарларининг ярмидан кўпи Ўзбекистонга келиб-кетди. Биз ҳавас қиламиз бундай Президентга”, деган гаплари ҳали-ҳамон қалбимга ғурур бағишлайди.

ПАХТА МАЙДОНЛАРИ 40 ФОИЗГА ҚИСҚАРДИ, ҲОСИЛ САЛМОҒИ КАМАЙМАДИ

Президентимизнинг қишлоқ хўжалиги фахрийси Тўхта Худойназаров билан самимий суҳбати ҳам барчамиз учун чинакам сабоқ бўлди. Бугунги кунда картошкачиликда эришилаётган ютуқлар айтиб ўтилди. Зеро, энди Ўзбекистон деҳқонлари аҳолини картошка билан тўла таъминлаяпти. Айниқса, давлат раҳбарининг пахтачиликда ислоҳотлар давом эттирилиши кераклиги ҳақидаги фикрлари барчамизга манзур бўлди.

– Бугун шахсан мен пахта масаласи билан шуғулланганим йўқ, – деди Президентимиз. – Ҳокимлар ҳам шуғулланмайди. Кластер ўзи буюртма беряпти, ўзи териб оляпти, ҳосилни қайта ишлаб, маҳсулотини сотиш билан банд. Назаримда, ҳали ҳам пахта майдонларимиз мавжуд корхоналар эҳтиёжидан баланд. Ғўза экиладиган майдонларни босқичма-босқич камайтириб бориш керак, токи одамлар ўзлари манфаат кўрадиган экинларни эксин. Лекин бу ишда ҳам режа пухта бўлиши керак. Биз даромад берадиган экинларни танлашимиз, бозорини пухта ўрганишимиз зарур.

Давлатимиз раҳбари Ўзбекистон шароитида ердан уч-тўрт мартагача ҳосил олиш мумкинлигини, бунинг учун неъматларни хорижга тезда чиқариш йўлини қилиш кераклигини, яъни логистикани оқилона ташкил этиш зарурлигини таъкидлади. Чунки бунда харажатлар қисқаради, одамларнинг узоғи яқин бўлади. У киши Самарқандда барпо этилган янги кўприк ҳам кўп йиллик орзуси ва бугунги кунда ғурури эканлигини ҳам яширмади.

... Пахта масаласи йиллар давомида халқимизнинг дарду изтиробига айланди. Беш миллион тонна пахта ҳосили етиштирган деҳқоннинг косаси оқармади. Аксинча, хомашё қулига айланди. Ташкилот раҳбарлари ўз касби ёки мутахассислигини, идорасини уддаламаганлиги учун эмас, балки жамоасини пахта йиғим-теримига сафарбар қила олмагани учун ишдан олинарди. Ҳатто, ўқув юртларига раҳбар тайинлашда, аввало, унинг ўз ходимларини ана шу мавсумга жалб қила олиш қобилиятига эътибор қаратиларди. Аянчлиси шундаки, бу соҳадаги режа 99,99 фоиз бўлганда ҳам ҳисобга ўтмас, ўша хўжалик, туман, вилоят режани бажармаган тамғаси билан кўплаб рағбатлардан қуруқ қоларди. Натижада, режани бажариб қўйиш учун мингта ҳийла ўйлаб топиларди.

Шукрки, Шавкат Мирзиёев ана шу дардимизга малҳам бўлди. Пахта масаласида давлат монополияси бекор қилинди, бу соҳада аёллар, болалар меҳнатига барҳам берилди.

Ғуруримизнинг боиси шуки, биз бу ислоҳот бошланганини ҳис қилиб, унга гувоҳ бўлиб турибмиз. Мисол учун, Самарқанд вилоятида кейинги 5-6 йил ичида пахта экиладиган майдонлар 40 фоизга қисқарди. Лекин ҳосилдорлик ҳисобига ҳосил салмоғи камайган эмас. 20 йил Самарқанд шаҳар кунини пахта далаларида нишонлардик. Бу тадбир ҳам тушликда тортиладиган ошдан, хонанда ижро этадиган 4-5 та ашуладан нарига ўтмасди. Бугун эса биз давлат раҳбарини ана шу байрам билан шаҳар чеккасида қад кўтарган замонавий кошона устида табрикладик. Бундай ғамхўрлиги учун миннатдорлик билдирдик.

БУГУН ШУНЧАКИ ЯШАБ БЎЛМАЙДИ

Ҳаммамиз улкан ислоҳотлар натижасини кундан кунга яққол сезиб бораётган юртдошларимиз фикрини айтишга улгурдик. Халқаро шахмат олимпиадаси ғолиби Афруза Ҳамдамова Самарқанддаги олимпиада тарихий эканлиги билан фахрланиб, келгуси сафар ўзбекистонлик хотин-қизлар жамоаси ҳам чемпион бўлишга қодир эканлигини фахр билан айтди. Жойларда очилаётган шахмат марказлари ёшларнинг энг севимли масканларига айлангани ҳам фикримиз исботидир.

Касаба уюшмалари федерацияси вилоят кенгаши раиси Суҳроб Рафиқов эса Самарқанд шаҳрини кенгайтириш, унинг инфратузилмасини юксалтириш борасидаги ишлар одамларнинг ҳаётга бўлган қарашларини ўзгартираётганлигини алоҳида таъкидлади. Айниқса, дарахт ва гулларнинг янги навлари айнан ўз лабораторияларимизда, ўз хўжаликларимизда етиштирилаётгани, қурилиш индустриямизда экспортчилар пайдо бўлгани хурсандчилик билан қайд этилди.

Шу ўринда барпо этилган кўприк ҳақида тўхталиб ўтсам: у Қорадарё устига 650 метр масофада ўрнатилди ва М39 трассаси билан боғланган. Кўприкнинг нариғида Оқдарё билан Қорадарё ўртасида, яъни Миёнқолда “Ширин” қўрғончаси жойлашган. Ана шу майдон келгусида вилоятнинг маъмурий маркази бўлади. Бу ерда камида 180 минг аҳоли истиқомат қилади, ақлли шаҳар бунёд этилади. Ҳозиргача Самарқанд шаҳри ҳудудига кирувчи бу маскан аҳолиси вилоят марказига йигирма километрлик айланма йўл орқали қатнаётган эди. Яна бир янгилик: бу ерда амалга оширилаётган қурилиш ишларига худди Янги Тошкентдаги каби имтиёзлар жорий этилади.

Ш.Мирзиёев давлатимиз, халқимиз олдида турган улкан вазифаларни санаб ўтди. У киши ҳар бир ишда лойиҳаларни пухта ўйлаш зарурлигини алоҳида таъкидлади. Мисол учун, тежамкор электр станцияси ўрнатяпмизми, демак одамларни ҳам бу неъматни тежашга ўргатиб боришимиз лозим. Янги маҳсулотлар ишлаб чиқаряпмизми, унинг логистикасини тўғри йўлга қўйишимиз керак. Янги ўқув юртлари очяпмизми, унда албатта замон талабига мос мутахассис тайёрлашимиз зарур. Бу даврда йўл-йўлакай, шунчаки яшаб бўлмайди. Халқаро муҳит доимо рақобатни талаб қилади. Биз ўзимизни ҳам, халқимизни ҳам ана шу рақобатга тайёрлай олишимиз шарт.

БУ МАСКАНДА МАЪРИФАТ, ИЛМ БОР

Давлатимиз раҳбарининг янгидан барпо қилинаётган Имом Мотуридий зиёратгоҳидаги суҳбатлари ҳам чинакам сабоқ бўлди. У кишининг ташаббуси билан қурилаётган ушбу манзил Чокардиза қабристонида ётган тўрт мингдан зиёд улуғ шайхлар руҳи сабабли ҳам дилимизга ўзгача сурур бахш этди.

– Бундай буюк қадамжоларни обод қилиш замирида катта маънавият, маърифат, таълим ва илм бор, – деди у киши. – Одамлар бу ерга келиб, нафақат зиёрат қилсин, балки билим олсин, ўзлигини англасин!

Президентимиз Имом Мотуридий, Бурҳониддин Марғиноний мақбараларини кўздан кечирар экан, биз ва фарзандларимиз мустаҳкам эътиқодли, маърифатли, илмли бўлишимиз зарурлигини алоҳида таъкидлади. Бунинг учун эса зиёлилар алломалар меросини мунтазам тарғиб қилиши, одамлар бундай меросдан доимо баҳраманд бўлиши зарур. Ислом цивилизацияси маркази, Имом Бухорий мажмуасидаги замонавий музейларнинг таъсирчан кучи халқаро ҳамжамият томонидан ҳам эътироф этилмоқда. Бу масканларга ташриф буюрган киши қайтиш чоғида маънавий жиҳатдан анча ўсган бўлиши керак.

Шунингдек, мажмуа қурилиши, унинг атрофидаги инфратузилмани замонага мослаб барпо этиш, зиёратчиларга барча қулайликларни яратиш юзасидан мутасаддиларга топшириқ берилди. Дарвоқе, хориждан келтирилган ёки ўзимизда кўпайтирилган майса-чим сувни кўп талаб қиларкан ва уни жуда тез буғлантириб юборар экан. Шу сабабли давлатимиз раҳбари мутасаддиларга бутасимон гул ва ўсимликларни кўпайтиришни маслаҳат берди. Бунда сувни тежаш баробарида қишин-ёзин яшилликни сақлаб туришнинг имкони бор.

Гарчи, турли мажлис ва халқаро анжуманларда нутқларини, мулоҳазаларини, ҳатто Самарқандга ташриф буюрганида жамоатчиликка ҳавола этган фикрларидан мунтазам хабардор бўлсам-да, шиддатли замонанинг ҳозирги ҳолатида Президентимдаги шижоат ва ғайратни, ўктамликни, муҳими, халқаро ҳолатга теран муносабатни кўриб, ғурурландим. Қарийб бир соатлик мулоқот давомида олган маълумот ва мулоҳазалар шууримни бойитди. Суҳбат жараёнида давлатимиз раҳбари таълим ва илм-фандаги ислоҳотларнинг моҳиятини ҳам равшан қилиб тушунтирди.

– Мен катта машаққат билан бўлса-да, давлат идоралари ходимларини маҳаллага тушириш чораларини кўраяпман ва бу мақсадга муайян даражада эришяпмиз. Таълим ва илм-фан вазирлигининг асосий вазифаси давлат ва жамоат ташкилотларини ҳамда ота-оналарнинг эътиборини мактабга қаратиши ва уларни илм масканларига жалб қилишдир. Тўғри, билим – катта нажот, лекин унга фарзандларимизда эҳтиёж уйғота билиш жамиятнинг муқаддас вазифаси саналади. Бугун эришган натижаларимиз бундай ишларни ҳам бажара олишимизга ишонч уйғотади.

Хайрлашиш чоғида Президент айтган сўзлар бизнинг бир соатлик суҳбат давомида олган завқу шавқимизнинг, сабоқларимизнинг чинакам якуни бўлди.

– Биз жуда катта йўлга чиқдик. Энди орқага қайтиш йўқ. Чунки бу йўлимиз тўғри эканлигини дунё тан оляпти! Бу йўлимиз тўғри эканлигини халқимиз ҳаёти фаровонлигининг кундан кунга ошиб бораётганлиги кўрсатиб турибди. Биз ҳамма соҳада баравар қадам ташлашимиз керак. Ҳар қандай муаммони ҳал қилишга қодир эканлигимизга ишонч ҳосил қилишимиз лозим. Мен бу борада самарқандликларга катта ишонч билдираман!

Фармон ТОШЕВ,
Ўзбекистонда хизмат кўрсатган журналист.

Yonimizdagi odamlar

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda xorijiy tillarni mukammal egallash, yosh avlodga ushbu bilimlarni zamonaviy metodlar asosida o'tkazish ta'lim tizimining eng ustuvor vazifalaridan biridir. Ayniqsa, ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy pedagog obrazini yaratish yo'lida o'z hayotini maktabga, o'quvchilar kamolotiga baxsh etgan fidoyi ustozlarning mehnati alohida e'tirofga loyiq. Ana shunday o'z kasbining haqiqiy fidoyisi, Ishtixon tumanidagi 13-umumiy o'rta ta'lim maktabining rus tili fani o'qituvchisi Maxsudjon Yuldashevdir.

ULUG' NOMNI SHARAFLAB



Maxsudjon Yuldashev 1969-yilda Ishtixon shahrida tug'ilgan. Tumandagi 35-o'rta maktabni a'lo baholarga bitirib, til o'rganishga bo'lgan qiziqishi sababli Ukrainadagi Kirovograd pedagogika institutiga o'qishga kiradi. Tahsilni muvaffaqiyatli tamomlagach, Belarusda 2 yillik harbiy xizmat burchini o'taydi.

Ustoz o'zining dastlabki pedagogik faoliyatini Ishtixon tumanidagi 48-maktabda boshlagan. Keyinchalik Abu Ali ibn Sino nomidagi Ishtixon salomatligi texnikumida rus tili o'qituvchisi, uslubchi, kasaba uyushmasi raisi va kafedra mudiri kabi mas'uliyatli lavozimlarda samarali mehnat qildi. 2018-yildan buyon tumandagi 13-umumiy o'rta ta'lim maktabida rus tili fanidan dars berib kelmoqda.

Maxsudjon Yuldashev doimiy izlanishdagi tadqiqotchi pedagogdir. U o'z faoliyati davomida 54 dan ortiq ko'rgazmali qurollar va didaktik materiallar yaratdi. Maktabning rus tili uslubiy birlashmasi a'zosi sifatida so'nggi 3 yilda ilg'or pedagoglarning 10 dan ziyod o'quv-uslubiy tavsiyalarini to'plab, viloyat miqyosida ommalashtirishga erishdi. Maktabda 2–11-sinf o'quvchilari uchun "Yosh bilimdon" to'garagini tashkil etib, iqtidorli yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazmoqda.

Uning sa'y-harakatlari bilan maktabda o'quvchilar o'rtasida "Kim ko'p she'r biladi" ko'rik-tanlovi, Alisher Navoiy va A.Pushkin ijodiga bag'ishlangan milliy adabiy tadbirlar muntazam o'tkazib kelinmoqda. Uning shogirdlari fan olimpiadalarining tuman va viloyat bosqichlarida faxrli o'rinlarni egallab kelmoqda.

Maxsudjon muallim o'z ustida ishlashdan, malakasini oshirishdan aslo to'xtamaydi. Oxirgi yillarda u erishgan yutuqlar fikrimizning yaqqol isbotidir.

2022-yilda Moskva xalqlar do'stligi universitetining nufuzli "Вопросы науки и образования" ilmiy jurnalida "Профессионализм в воспитании будущего поколения" mavzusidagi ilmiy maqolasi chop etildi hamda universitetning psixologik yo'nalishdagi sertifikatiga ega bo'ldi.

2023-yilda u yaratgan "A.Pushkinning hayoti va ijodi" mavzusidagi metodik qo'llanma tumanda ommalashtirilib, viloyat miqyosida tavsiya etildi. Shuningdek, rus tili va adabiyoti assotsiatsiyasining A2 darajali sertifikatini qo'lga kiritdi.

2025-yilda tajribali ustoz Moskva xalqlar do'stligi universiteti tomonidan beriladigan xalqaro rus tilini oliy darajada bilish sertifikatini qo'lga kiritdi.

Bugungi kunda Maxsudjon Yuldashev nafaqat o'z maktabida, balki Ishtixon tumanida rus tili fani bo'yicha mentor o'qituvchi sifatida tanilgan. U tuman va viloyat miqyosidagi o'quv-uslubiy seminarlarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo'yicha mahorat darslarini o'tib keladi.

O'zining 30 yillik mehnat faoliyatida yuzlab shogirdlarning qalbiga ilm ziyosini singdirgan Maxsudjon Yuldashev yaqinda "Xalq ta'limi a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. Biz, shogirdlar ustozni ushbu mukofot bilan tabriklaymiz va u kishining keyingi pedagogik faoliyatiga zafarlar tilaymiz.

Bobomurod ODILOV,
O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi,
Toshkent shahri Hakamlik sudi sudyasi.

«Hammasi bolamning kelajagi uchun!» deymiz. Ishlaymiz, mablag' topamiz, kiyim olib beramiz, o'qishga, to'garakka, repetitorga yuboramiz. Shu tashvishlar orasida o'zimizga bir savolni ham berishimiz kerak: farzandimizning bugungi hayotida qanchalik ishtirok etyapmiz? Uning orzusini, qo'rquvini, qiziqishini bilamizmi? Oxirgi marta qachon telefonimizni chetga qo'yib, gapini bo'lmasdan tingladik?



FARZANDINGIZGA VAQT AJRATYAPSIZMI?

Dunyo tajribasida ota-onalarning farzand ta'limiga ajratadigan vaqti turlicha. Varkey Foundationning 2018-yilda e'lon qilingan, 29 mamlakatdagi 27500 ota-onani qamrab olgan so'rovnomasida keltirilishicha Hindiston – 12 soat, Vetnam – 10,2 soat, Turkiya – 8,7 soat, AQSh – 6,2 soat, Buyuk Britaniya 3,6 soat, Finlandiya – 3,1 soat va Yaponiya 2,6 soat vaqt ajratar ekan.

Bu — o'sha davr so'rovi natijalari; farzand bilan o'tkaziladigan jami vaqt emas, uning o'qishiga yordam berish vaqtidir.

Raqamlardan «qancha ko'p dars qildirilsa, natija shuncha yaxshi bo'ladi», degan xulosa chiqarish to'g'ri emas. Uy vazifasi hajmi, maktabdagi ta'lim va bolaning mustaqil ishlash imkoniyati ham ahamiyatli. Finlyandiya yoki Yaponiyadagi nisbatan kam vaqtni ota-onalarning befarqligi deb talqin qilib bo'lmaydi. Ushbu so'rov tahlilida ham uy vazifasiga ko'p yordam berishning o'zi yuqoriroq test natijasini kafolatlamasligi ta'kidlangan.

Bolaga ajratilgan vaqtning mazmuni muhim: birga kitob o'qish, savollariga javob izlash, fikrini tinglash, mustaqil yechim topishiga imkoniyat berish. Tayyor javobni aytib qo'yishdan ko'ra, «Sen buni qanday tushunding?» deb so'rash ham ta'limga e'tibordir.

Ta'limga e'tibor — taraqqiyot kaliti. Chunki bilimli, mustaqil fikrlaydigan va mas'uliyatli bola kelajakda malakali mutaxassis, tashabbuskor fuqaro bo'lib yetishishi uchun asos bo'ladi. Mamlakatning ertangi o'qituvchisi, shifokori, muhandisi va olimi bugun bizning oilamizda, sinfxonamizda ulg'aymoqda. Ularning savoliga munosabatimiz ham kelajakka qo'shgan hissamizdir.

O'zbekistondagi holat bizga nimani ko'rsatadi?

Oilaviy yaqinlik, bobo-buvilarning ko'magi va farzandni o'qitishga intilish — biz tayanishimiz mumkin bo'lgan qadriyatlar. Biroq oilaviy mehrni muntazam, ongli ishtirok bilan mustahkamlash zarur.

2021–2022-yillardagi MICS tadqiqotiga ko'ra, O'zbekistonda 2–4 yoshli bolalarning so'nggi uch kunda otasi bilan kamida to'rt turdagi rivojlantiruvchi faoliyatda qatnashganlari 5,2 foiz, onasi bilan qatnashganlari 44,4 foiz bo'lgan. Bu barcha otalarning tarbiyadagi ishtirokini yoki kunlik muloqot daqiqalarini ifodalamaydi. Ammo kichik yoshdagi bolalar bilan mashg'ul bo'lishda ota va ona ishtiroki o'rtasidagi sezilarli farqni ko'rsatadi.

Muhokama qilishimiz kerak bo'lgan muammolar bor.

Birinchisi — tarbiya mas'uliyatini asosan onaga yuklash. «Men pul topyapman, onasi shug'ullansin», degan yondashuv ota bilan farzand o'rtasidagi kundalik muloqotni cheklaydi. Ota ham bolaning do'stlari, qiziqishlari va qiyinchiliklarini bilishi muhim.

Ikkinchisi — ta'limga e'tiborni baho va sertifikat bilan o'lchash. Suhbat faqat «Necha olding?»dan iborat bo'lsa, bolaning nimani tushungani, nimadan qiynalayotgani va nimaga qiziqishi e'tibordan chetda qolishi mumkin. Yutuqni qadrlash bilan birga harakatni, izlanishni va xatodan o'rganishni ham rag'batlantirish kerak.

Uchinchisi — telefon oilaviy muloqotni bo'lishi. Bolaga «Telefonni qo'y!» deyishdan oldin, u biz bilan gaplashayotganda o'zimiz ekrandan bosh ko'taryapmizmi, deb o'ylashimiz lozim.

To'rtinchisi — vaqt va imkoniyatlar teng emasligi. Uzoq ish kuni, mehnat migratsiyasi, ro'zg'or yuki va charchoqni hisobga olmasdan turib, barcha ota-onani bir xil baholab bo'lmaydi. Oilaga amaliy ko'mak ham kerak.

Yechimni bugundan boshlash mumkin. Buning uchun:

- kun tartibida farzand uchun muayyan vaqt belgilang. Masalan, dastlab har kuni 20–30 daqiqa telefonsiz suhbat, o'yin yoki kitob o'qishdan boshlang. Bu qat'iy me'yor emas; vaqt bolaning yoshi va ehtiyojiga mos bo'lsin;

- har bir farzandni alohida tinglang. «Bugun seni nima quvontirdi?», «Qaysi ish senga qiyin bo'ldi?», «Mendan qanday yordam kutyapsan?» — oddiy savollar yaqin suhbatga yo'l ochadi;

- ota va ona mas'uliyatni bo'lishib olsin. Kitob o'qish, sayr, darsga ko'mak va maktab bilan muloqotda har ikkisining muntazam ishtiroki bo'lsin. Uzoqda ishlayotgan ota-ona esa kelishilgan vaqtda qo'ng'iroq qilib, bolaning kundalik hayoti bilan qiziqsin;

- bolaning o'rniga vazifa bajarmang. Yo'l-yo'riq ko'rsating, savol bering, mustaqil urinishiga vaqt qoldiring. O'qish bilan birga dam olish va erkin o'yinga ham sharoit yarating;

- maktab va mahalla ota-onaga amaliy yordam bersin. Uchrashuvlarda bolani tinglash, o'smir bilan kelishish, kitobxonlik va raqamli odatlar bo'yicha qisqa mashg'ulotlar o'tkazilsin. Otalar ham bevosita taklif etilsin.

- oilaga qulay ijtimoiy sharoit yaratilsin. Ish beruvchilar imkon bor joyda moslashuvchan ish vaqtini qo'llasin. Mahallalarda xavfsiz o'yin maydonlari, kutubxonalar va hamyonbop to'garaklar ko'paysin.

Farzandga ajratilgan vaqt — uni bilish, tushunish va qo'llab-quvvatlash imkoniyati. Ta'limga e'tibor esa oila bilan maktabning har kungi hamkorligida namoyon bo'ladi.

Bugun farzandingizdan: «Men sen bilan ko'proq nima qilishimni xohlaysan?» deb so'rang. Javobini tinglang va shu istak uchun vaqt belgilang.

Alisher ERNAZAROV,
dotsent.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada ikki marta - chorshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qurbonov Mehroj Shuhratovich notarial idorasida marhum Botirov Abdulla Xolmurzayevichga (2020-yil 9-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qurbonov Mehroj Shuhratovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharchasi, Nodirabegim ko'chasi, 20-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasida marhum Xayrullayev Tolibdjon Habibovichga (2023-yil 12-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Bog'dod ko'chasi, 1-uy, 3-xona.

* * *

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hamidov Norbek Komil o'g'li notarial idorasida marhum Qilichev Pardaga (2025-yil 14-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xamidov Norbek Komil o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharchasi, Amir Temur ko'chasi, 48-uy.

* * *

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Urinova Musavvar Homidovnaga (2022-yil 29-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi Amir Temur ko'chasi.

* * *

Bulung'ur tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Salimov Otabek Mamayusupovich notarial idorasida marhum Abduraxmonov Nurilla Tashbayevichga (2011-yil 15-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Salimov Otabek Mamayusupovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Bulung'ur shahri Mustaqillik maydoni.

* * *

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hakimova Igora Hikmatovna notarial idorasida marhum Xalilov Tolipboy Suvanovichga (2024-yil 8-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hakimova Igora Hikmatovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharchasi, Nodirabegim ko'chasi.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Azizov Sherzod Ilhomovich notarial idorasida marhum Mirzayeva Aziza Asatovnaga (2026-yil 15-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Azizov Sherzod Ilhomovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Ahmedjanova Manzura Kodirovnaga (2017-yil 4-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahmonov Sarvar Ne'matilloyevich notarial idorasida marhum Xamidov Rafik Abduxamidovichga (2009-yil 17-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahmonov Sarvar Ne'matilloyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 60-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Mubin Ne'matjonovich notarial idorasida marhum Gafarova Munavarga (2011-yil 1-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Mubin Ne'matjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mustaqillik maydoni.

* * *

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarda marhum Urakov Amiriddin Mamirovichga (2017-yil 25-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarga murojaat etishlarini so'raymiz.

* * *

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasida marhum Soliyeva Masudaga (2025-yil 23-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi, Bag'rikenglik ko'chasi, 4-uy.

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Tashev Asomiddin Namuratovichga (2025-yil 26-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ashurova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 110-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Muradova Unbulga (1990-yil 13-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Muminov Amirga (2006-yil 31-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Rizayev Shavkatga (2023-yil 2-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy.

* * *

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Saidov Baxodir Xolmatovichga (2026-yil 8-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Murtazayev Sherzod Sobirovich notarial idorasida marhum Sharipov Nurmamatga (2012-yil 14-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Murtazayev Sherzod Sobirovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Bashkina Natalya Vladimirovnaga (2021-yil 13-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

* * *

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius To'ychiyev Nizomiddin Murod o'g'li notarial idorasida marhum Yunusov Senya Pardayevichga (2020-yil 26-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning To'ychiyev Nizomiddin Murod o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani O'rtashiq mahallasi.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mavlonova Marjona Komilovna notarial idorasida marhum Abduaxatova Raimaga (2022-yil 18-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mavlonova Marjona Komilovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gulobod ko'chasi, 5-uy.

QUTLAYMIZ!

Hurmatli Egamberdi NIYOZOV!

Sizni qutlug' 80 yoshingiz bilan tabriklaymiz!

Siz uzoq yillar Nurobod tumanidagi 24-maktabda yoshlarga saboq berdingiz. Hozirgi kunda pensiyada, mehribon o'g'il-qizlar, nevara-evaralar qurshovida baxtli hayot kechiryapsiz. Jom mahallasi faoli sifatida mahalla obodligi, yoshlar tarbiyasiga hissa qo'shyapsiz. Harakatchanligingiz sabab xalq hurmatiga sazavor bo'ldingiz. Bugun shogirdlaringiz turli sohalarda mehnat qilib, yurtimiz ravnaqiga hissa qo'shib kelmoqda.

Ustoz, tavallud kuningizda Slzga mustahkam sog'lik tilaymiz. Yaqinlaringiz davrasida doimo shod-xurram yuring!

24-MAKTABNING 1981-YILGI BITIRUVCHILARI.

“Ona til”mi yoki “ona tili”?



Til xalqning tarixiy xotirasi, tafakkuri, ruhiyati va milliy o‘zligini mujassam etgan ma’naviy hodisa. Shu sababli til nomi bilan bog‘liq har bir so‘z va qo‘shimcha ortida muayyan ma’no yotadi. Ba’zan bitta qo‘shimchaning qo‘llanishi ifodalanayotgan tushunchaning mohiyatini o‘zgartirib yuborishi mumkin. Shu nuqtai nazardan “ona til” va “ona tili” shakllarini bir-birining oddiy variantlari sifatida qabul qilish masalani soddalashtirib yuboradi.

“Ona tili” deyilganda avvalo, onaning tili, ya’ni muayyan bir onaga tegishli til tushunchasi grammatik jihatdan yuzaga keladi. Chunki -i qo‘shimchasi o‘zbek tilida egalik munosabatini ifodalovchi grammatik vositalardan biri. “Ona tili” shaklida “ona” va “til” o‘rtasida egalik munosabati ko‘rinadi.

“Ona til” birikmasida esa bunday munosabat mavjud emas. Bu yerda “ona” so‘zi tilning egasini emas, uning mohiyati va inson uchun qadrini belgilaydi. “Ona” — bu o‘rinda biologik shaxs nomi emas, balki tug‘ilish, manba, mehr, ildiz va muqaddaslik timsoli. Shuning uchun “ona til” deganda “onaning tili” emas, insonning ona kabi aziz va tug‘ma tili anglanadi.

Bu farq o‘zbek tilining boshqa tabiiy birikmalarida ham yaqqol ko‘rinadi. Biz “ona Vatan”, “ona zamin”, “ona yer” deymiz. Bu birikmalarda “ona” keyingi so‘zning egasini bildirmaydi. U Vatan, zamin va yerga nisbatan insonning chuqur ma’naviy munosabatini ifodalaydi. Demak, “ona” so‘zining bunday qo‘llanishida uning semantik vazifasi egalikdan ko‘ra kengroq: u azizlik, tug‘malik va muqaddaslik ma’nolarini yuklaydi.

“Chet el” birikmasi ham o‘zbek tilidagi aniqlovchi–aniqlanmish munosabatning sodda va tabiiy ko‘rinishlaridan biri. “Chet” so‘zi “el”ni aniqlaydi, biroq “chet eli” shakliga ehtiyoj tug‘dirmaydi. Xuddi shuningdek, “chet til” birikmasida ham “chet” so‘zi “til”ning belgisini aniqlab keladi.

Shunday ekan, “ona til” shaklida qo‘shimchaning yo‘qligini grammatik nuqson sifatida baholash shoshma-shosharlik bo‘ladi. Tilning barcha birikmalari bir xil sintaktik qolip asosida tuzilmaydi. O‘zbek tilida aniqlovchi va aniqlanmishning bitishuv asosida bog‘lanishi keng tarqalgan hodisa. “Ona til” ham shu imkoniyat doirasida talqin qilinishi mumkin.

Masalaning muhim jihati shundaki, “ona til” shakli faqat grammatik ixchamlikni emas, ma’no aniqligini ham ta’minlaydi. “Ona” so‘zi “til”ga egalik qiluvchi shaxsni emas, tilning inson hayotidagi maqomini belgilaydi. Bu — inson tug‘ilgan muhitdan, oiladan, xalqdan va milliy tafakkurdan singib keladigan til. U inson uchun ona kabi yaqin, ona kabi aziz. Shu sababli bu yerda masalani faqat “qo‘shimcha kerakmi yoki kerak emasmi?” tarzida qo‘yish yetarli emas. Asosiy savol boshqacha: qo‘shimcha qo‘shilganda dastlabki ma’no saqlanadimi?

Agar -i egalik ma’nosini yuzaga chiqarsa, “ona tili” shakli “ona” va “til” o‘rtasidagi munosabatni egalik yo‘nalishida ifodalaydi. “Ona til” esa tilni muayyan bir onaga tegishli narsa sifatida emas, insonning eng yaqin, eng tabiiy va muqaddas tili sifatida tasvirlaydi.

Demak, masala birgina qo‘shimchani tushirish yoki qo‘shish bilan hal bo‘ladigan texnik masala emas. Bu so‘zning shakli bilan ma’nosi o‘rtasidagi munosabat masalasidir. Til me’yorini anglash uchun uning tashqi qolipinigina emas, ichki semantik va sintaktik mantig‘ini ham ko‘ra bilish kerak.

“Ona til” degan ikki so‘zda esa katta bir ma’naviy mazmun mujassam: ona — ildiz, til — o‘zlik. Ularning qo‘shilishidan xalqning tarixiy xotirasi, milliy ruhi va avlodlar davomiyligini ifodalovchi tushuncha paydo bo‘ladi.

Ibodulla MIRZAYEV,
Samarqand davlat universiteti professori.

Mulohaza uchun mavzu

QISHLOQ yo‘llarining egasi kim?



Turmush o‘rtog‘im ham davlat ishida ishlaydi, farzandlarim maktabda o‘qiydi, xullas, hammamiz ertalab ketib, kechqurun uyga qaytamiz. Bir kuni kechki payt uyga qaytsam, ko‘cha chetidagi ariq menga tegishli yerdan qazilib, yo‘l kengaytirilibdi. Qo‘shnim yo‘l hisobidan tomorqasini kengaytirgani uchun bitta mashina zo‘rg‘a sig‘adigan ko‘cha qolgandi. Uyda hech kim yo‘q paytda tomorqamdan yo‘lga qo‘shishgani jahlimni chiqardi. Dam olish kuni ariqni eski joyiga qaytardim, ammo ishga ketsam, yana ariq mening tomorqamdan kovlanibdi. Mojaroni hal qilish uchun mahalla raisi, profilaktika inspektori keldi, ammo ular yerni o‘zlashtirgan qarindoshlarining tarafini oldi. Mulkka egalik to‘g‘risida barcha hujjatlaring bo‘lsa-yu qaysidir amaldor yoki huquqni himoya qiluvchi organ xodimi huquqingni poymol qilib tursa, dodingni kimga aytasan?!

Payariq tumanida murojaatni o‘rganish chog‘ida bo‘lib o‘tgan bu suhbatdan keyin ancha suvlar oqib ketdi. Lekin mulk hujjatlari bo‘la turib, nohaqlikka uchragan bu fuqaroning gaplari tez-tez esimga tushaveradi.

Kasb yuzasidan tumanlarga, qishloqlarga tez-tez borib turaman. Ichki yo‘llarning naqadar tor ekanligiga ko‘p duch kelganman, bir necha bor bu yerda necha metr yo‘l uchun ajratilganiga ham qiziqib ko‘rganman. Baribir qaysidir noinsof yo‘lni “kemirib” tomorqasiga qo‘shib olgan bo‘lib chiqadi.

Katta yoshli insonlar yaxshi biladi - avval qishloqda ham, shaharda ham ko‘cha chetida piyodalar yo‘laklari bor edi. Avtomobillar harakatiga xalaqit bermaslik, piyodalar xavfsizligini ta’minlash uchun olis qishloqlarda ham bunday piyodalar yo‘laklari tashkil etilgan edi. Keyingi yillarda piyodalar yo‘laklari ham ayrimlar tomonidan tomorqasiga qo‘shib olindi. Mahallalarda, qishloqlarda bu kabi holatlarga “ko‘z-ko‘zga tushadi” qabilida ish tutiladi, kadastr idoralari ham yo‘llar ularning vakolatida emasligini aytishadi. Xo‘sh, ichki yo‘llarning egasi bormi?

Qonunchilikka ko‘ra, xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari va aholi punktlaridagi ichki yo‘llar mahalliy davlat hokimiyati organlari (tuman va shahar hokimliklari) balansida bo‘ladi. Ammo amalda ularni saqlash va ta’mirlash ishlari maxsus qarorlar bilan obodonlashtirish boshqarmalari hamda tegishli yo‘l mas’ullariga yuklab kelinadi. Umumiy foydalanishdagi yo‘llar Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi tasarrufida, ichki xo‘jalik va qishloq yo‘llari: mahalliy hokimliklar va tuman obodonlashtirish bo‘limlari balansida turadi. Lekin obodonlashtirish boshqarmalari ichki yo‘llarning ta’mirlanishinigina nazorat qiladi, xolos.

Prezidentimizning 2025-yil 19-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoniga asosan 2026-yil 15-yanvardan 28-fevralgacha qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirlari o‘tkazildi. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-avgustdagi “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi Qonuni bilan 2028-yilgacha barcha hududlardagi uy-joy, noturarjoylar xatlovdan o‘tkazilmoqda. Bunda xatlovdan o‘tkazilgan har bir obyektning qonuniyligi, davlat va jamiyatga zarar yetkazmasligi va boshqa holatlar hisobga olinib sohaga aloqador 20 dan ortiq tashkilot mas’ullari rozilik bergandan so‘nggina obyekt e’tirof etiladi. Lekin qonunda obodonlashtirish boshqarmalarining ishtiroki nazarda tutilmagan. Kadastr idorasi xodimlari uy egasi qayerdan chegarasini ko‘rsatsa, o‘sha yerdan belgilab ketishayotganiga guvoh bo‘ldim. Demak, yuqorida keltirilgan farmon va qonunda ham ichki yo‘llarni o‘lchash, chegaralarini belgilash borasida birorta band yo‘q.

Aslida ichki yo‘llarning egasi mahalliy kengashlar hisoblanadi, ta’mirlash ishlarini esa obodonlashtirish boshqarmalari olib boradi. Lekin umumfoydalanishdagi, qishloqlarni bog‘laydigan yoki ichki yo‘llardagi piyodalar yo‘laklari yo‘qolib ketayotgani, undan ham yomoni, yo‘llarning o‘zi yildan yilga torayib ketayotgani, afsuski, hech kimni tashvishlantirmayapti. Buning oldini olish, yo‘l hisobidan o‘zlashtirilgan yerlarni, kimningdir tomorqasiga qo‘shilib ketgan yo‘laklarni joyiga qaytarish kerak. Yana taklifim, yo‘l sohasi mas’ullari magistrallar, umumfoydalanishdagi, qishloq yo‘llari va ichki ko‘chalarning necha metr bo‘lishiga doir standart qoidalariga rioya etilishini qat’iy nazorat qilsalar yaxshi bo‘lardi. Shunda yo‘lni noqonuniy o‘zlashtirish, avval boshdagi kattagina yo‘l yillar o‘tib zo‘rg‘a bitta mashina sig‘adigan darajada kichrayib qolishi, piyodalar yo‘lagini qo‘shib olish kabi holatlarning oldi olinardi.

O‘ktam XUDOYBERDIYEV.

VAQT uchun VAQT toping!



Yaqinda “Zarafshon” gazetasida “Behuda ermak vaqtni yemiradi, bilim esa shuurni to‘ldiradi” sarlavhali mulohazani o‘qib, o‘ylanib qoldim.

Vaqt insonga berilgan eng bebaho ne’mat. Bir sutkadagi yigirma to‘rt soatni kimdir mazmunli hayotga aylantiradi, kimdir esa uning katta qismini “vaqt o‘tkazish” bilan sarflab yuboradi.

Shu o‘rinda savol tug‘iladi – bo‘sh vaqt o‘zi nima?

Bo‘sh vaqt, menimcha, ishdan yoki o‘qishdan bo‘shagan paytning o‘zi emas, balki insonning o‘z xohishi bilan nima qilishini tanlaydigan fursatidir. Demak, insonning bo‘sh vaqti uning madaniyati, qiziqishi, didi va hayotga munosabatini ko‘rsatadi. Kimdir bo‘sh vaqtida kitob o‘qiydi, kimdir sport bilan shug‘ullansa, kimdir hunar o‘rganadi, farzandlari bilan suhbatlashadi. Boshqa birov esa shu vaqtni ekran oldida sezmay o‘tkazib yuboradi.

Ana shu yerda asosiy masala paydo bo‘ladi, bo‘sh vaqtimizni kim boshqaryapti, o‘zimizmi yoki telefon, internetmi?

Bugun telefon allaqachon hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Uning yordamida ishlaymiz, o‘qiymiz, xabarlashamiz, yangiliklardan xabardor bo‘lamiz. Internet orqali dunyoning istalgan nuqtasidagi ma’lumotni topish, xorijiy tilni o‘rganish, yangi kasb egallash, kitob o‘qish imkoni ham bor. Demak, texnologiyaning o‘zi muammo emas, muammo undan qanday foydalanayotganimizda.

“Telefonga bir daqiqa qarayman”, deb qo‘lga olingan qurilma ba’zan insonni soatlab ushlab turishi mumkin. Bir xabar, video, keyin yana bir sahifa, vaqt esa sezilmay o‘tib boradi.

Shu ma’noda, “Internet o‘z domiga tortyapti”, degan fikrda jon bor. Ammo internetni kim ishlatyapti, telefonni kim qo‘liga olyapti, aslida qachon to‘xtashni kim hal qilishi kerak? Albatta, o‘zimiz.

Demak, bugungi eng muhim ko‘nikmalardan biri bu o‘z vaqtini va o‘zini boshqara bilishdir.

Ayniqsa, yoshlar vaqti haqida jiddiy o‘ylashimiz kerak. Hozirgi yoshlarning bo‘sh vaqti bormi degan savolga, albatta, bor, deb javob berish mumkin. Lekin yana bir savol bor, ular o‘sha vaqtdan qanday foydalanyapti?

Yoshlik inson hayotining eng sermahsul davri. Bu davrda o‘rganilgan bilim, egallangan kasb, orttirilgan tajriba, shakllangan yaxshi odatlar hayot uchun mustahkam poydevor bo‘ladi. Shu bois yoshlikdagi har bir soat va daqiqaning qadri baland.

Bugun bir soat kitob o‘qigan yosh ertaga bir qadam oldinda bo‘lishi mumkin. Hunar o‘rgangan inson esa albatta kelajakda o‘z kasbiga ega bo‘lish barobarida hayotini yaxshilab oladi. Doimiy sport yoki badantarbiya bilan shug‘ullangan kishi sog‘lig‘iga sarmoya qiladi. Ota-onasi bilan suhbatlashgan farzand oilaviy mehr-oqibatni va qadriyatlarni yanada chuqurroq his etadi.

Aksincha, bir necha soatni maqsadsiz ekranga tikilib o‘tkazish insonga nima beradi, ehtimol, biroz ko‘ngilxushlik berar. Ammo unga qancha vaqt ketganini hisoblab ko‘rganmizmi?

Shuning uchun “vaqtim yo‘q” degan gapni ham ba’zan qayta ko‘rib chiqish kerak, nazarimda. Balki vaqt yo‘q emasdir, biz unga ustuvorlik bermayotgandaymiz?

Ota-onalar uchun ham bu masala juda muhim. Farzandiga “telefonni qo‘y”, deyish oson. Ammo uning o‘rniga biz bugun ularga nima taklif qilyapmiz? Kitobmi, sportmi, to‘garakmi, birgalikda suhbatmi, oilaviy sayrmi yoki o‘zimiz ham telefonga berilib o‘tiribmizmi?

Bola kattalarning gapidan ko‘ra ko‘proq ularning hayot tarziga qarab intiladi. Shuning uchun farzanddan vaqtni qadrlashni talab qilishdan oldin, o‘zimiz unga namuna bo‘lishimiz kerak.

Bu borada maktab, mahalla va jamoatchilikning ham o‘rni bor. Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun bugun barcha joylarda kutubxonalar, sport maydonlari, turli to‘garaklar, ijodiy va kasb-hunarga yo‘naltiruvchi muhit bor. Faqat ularni yo‘naltirish kerak, xolos.

Vaqtni qadrlash umrni qadrlashdir, vaqtni mazmunli o‘tkazish esa hayotni mazmunli yashashdir. Shuning uchun yana bir bor o‘zimizdan so‘raylik, vaqtim yo‘qmi yoki men vaqt uchun vaqt topmayapmanmi?

Husan HUSHYOR.

VIJDONNING BUGUNGI SO‘ROG‘I

Erkak kishi ko‘chaning odamigina emas, u – oila ustuni. Ustunsiz bino omonat bo‘lgani kabi oila boshlig‘isiz xonadon ham butun bo‘lmasligini nega anglamaymiz?!

MATBUOT UYI
Zarafshon
САМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 9 021 nusxada chop etildi. Buyurtma 424. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E’LONLAR:** (66) 233-91-56
BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61
MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti:
soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi:
soat 19:00

Gazetamizning ayrim materiallariga surat tanlashda sun’iy intellekt imkoniyatidan foydalaniladi

Navbatchi muharrir: A.SHERXOLOV.
Navbatchi: Y.MARQAYEV.
Sahifalovchi: O.NAZIROV.

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X

Sotuvda narxi kelishilgan holda